

**BANKLAR VALYUTA BOZORINING TASHKILOTCHISI SIFATIDA**

*Mustafoqulov Alisher Mirzohid o'g'li - Samarqand davlat universiteti  
Kattaqo'rg'on filiali Bank ishi va audit yo'nalishi 21-07 guruh talabasi*

*Tillayeva Maftuna Qahramon qizi - Samarqand davlat universiteti  
Kattaqo'rg'on filiali Bank ishi va audit yo'nalishi 21-07 guruh talabasi*

*Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich - Samarqand Davlat Universiteti  
Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi (ilmiy rahbar)*

**Annotatsiya:** Maqolada banklar va bank operatsiyalarining olib borilishi va valyuta tizimini rivojlantirish bosqichlari aks etgan. Xalqaro valyuta munosa-batlari, milliy valyuta tizimi, milliy valyuta kursi almashinuvi va barqarorlashu-vini ta'minlash kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

**Abstract:** Banks and banking in the article operations and development stages of the currency system are reflected. Issues such as international currency relations, national currency system, ensuring the exchange and stabilization of the national currency exchange rate have been expressed.

**Kalit so'zlar:** Valyuta, milliy valyuta tizimi, xalqaro kredit, jahon valyuta tizimi, valyuta kursi, valyuta riski, valyuta savati.

**Key words:** Currency, national currency system, international credit, world currency system, exchange rate, currency risk, currency basket.

Xususiy shaxslar, firmalar, banklarning valyuta va pul bozoridagi xalqaro hisob-kitoblar, kredit va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadidagi kundalik aloqalarini o'z ichiga oladi. Valyuta munosabatlarining ba'zi bir elementlari qadimiy Rimda veksellar asosida va bir mamlakat savdogarining pulini ikkinchi bir mamlakat savdogariga almashtirib berish zaminida vujudga kelgan. Valyuta munosabatlarining rivojlanishining keyingi bosqichi kadimiy Lionda va boshqa G'arbiy Evropa mamlakatlarida o'tkaziladigan tratta operatsiyalarining rivojlanishi hisoblanadi.

Valyuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o'z ichiga oladi. Valyuta tizimining quyidagi turlari mavjud. Bular - milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlaridir. Sanoat rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlari o'rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida valyuta tizimi jahon xo'jalik aloqalarida muhim va mustaqil o'rin tuta boshlayapti. Valyuta tizimi mamlakatning iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir etadi (ya'ni ishlab chiqarish omillari, sur'atlariga, narxga, ish haqiga va boshqalarga). Milliy valyuta tizimi - tarixan yuzaga kelgan bo'lib, aloxida olingan davlatning valyuta munosabatlarini qonun asosida tashkil qilish

va boshqarish munosabatlarini o'z ichiga oladi. Milliy valyuta tizimining elementlari bo'lib, milliy valyuta, valyuta rezervlari hajmi va tarkibi, valyuta pariteti va milliy valyuta kursi, valyutani konvertirlash shartlari, mamlakat valyuta munosabatlarini boshqaruvchi milliy mahkamalar va tashkilotlar statusi, valyuta va oltin milliy bozorlarining faoliyat yuritish shartlari, valyuta nazorati, valyutaviy cheklanishlarning bor-yo'qligi qoidalarini, xalqaro kredit vositalarini milliy pul aylanishida qo'llash qoidalari va boshqalar hisoblanadi.

Valyuta kursini kelib chiqishi mamlakatlar iqtisodiy faoliyatini muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan-xalqaro savdoni rivojlantirish bilan bog'liq. Valyuta kursi xalqaro savdoni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish bilan ichki iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursi asosan quyidagi jarayonlarni amalga oshirish uchun: kapital va kredit harakatida, tovar va xizmatlar savdosida valyutalarni o'zaro ayirboshlash. Masalan, eksportyor chet el valyutasi olgan tushumini o'z milliy valyutasiga aylantiradi, chunki boshqa davlatning valyutasi uning o'z davlatida qonuniy ravishda xarid qilish va to'lash vositasi sifatida amal qila olmaydi. Importyor chetdan sotib olgan tovarlarni to'lovchini amalga oshirish uchun milliy valyutada olgan tushumini chet valyutasiga almashtiradi;

■ jahon bozori va milliy bozor narxlarni hamda turli mamlakatlarning milliy va chet el valyutasida ifodalangan qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslash;

■ firma va banklarning chet el valyutasidagi mavjud bo'lgan davriy qayta baholash va boshqa jarayonlar uchun. Valyuta kursi - bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Tashqi jihatdan valyuta kursi jahon bozoridagi talab va taklif asosida aniqlangan bir valyutani boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblab chiqilgan koeffitsienti sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Markaziy banklarning valyuta bozoridagi rolini va pul-kredit siyosati qarorlarining ta'sirini tushunish global iqtisodiyotning murakkabliklarini yo'lga qo'yish va ma'lumotli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari**

1. Sh.Abdullayeva "Pul, kredit va banklar" Toshkent Moliya instituti, 2003 yil.
2. T.I.Boboqulov, U.A.Abdullayev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" Toshkent Moliya instituti, 2019 yil.
3. A.O'lmasov, A.Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi", Toshkent "Iqtisodiyot-moliya" 2014 yil.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)